TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

G. A. Kurbonova	The Meaningful Life Journey of Sahibqiran Amir Temur Across the Ages	85
N. B. Kuvatova	The Educational Environment in Higher Education Systems: Theoretical Perspectives and Effectiveness	91
F. R. Khasanova	Implementing Virtual Tours and Intelligent Technologies in Museums of Uzbekistan: Challenges and Prospects	95
F. Muratova	Contemporary Requirements for Professional Practice in Psychology: Challenges and Strategies for Overcoming Them	98
D. Dj. Rashidova	The Role of Lifelong Learning in Human Capital Development	102
Y. Saburova	The Significance of the Third Renaissance in Societal Development	104
Sh. Kh. Buriyev	The Strategic Importance of Preserving Cultural Heritage in Societal Development: The Evolution of the Conservation, Restoration, and Preservation System for Museum Collections in Uzbekistan (1991–2025)	107
H. T. Usmonov	The Art of Calligraphy and Beautiful Handwriting	113
N. A. Yuldasheva *N. Tursunaliyeva* *S. Sh. Bekturdiev*	Digital Transformation in Primary Education: Contemporary Technologies and Future Development Prospects	116
S. V. Yuldashev *A. Sharafiddinov*	History Horse Breading in Ferghana Valley	120
M. Ch. Saidova	The Effectiveness of Peer Support Programs in Preventing Bullying in School Environments	124
Sh. Sh. Uzakov	Conceptual Foundations and Empirical Analysis of Poverty Reduction Through Improving the Entrepreneurial Environment	128

The Role of Lifelong Learning in Human Capital Development

Rashidova Dilorom Djaloliddinovna (Master Student)[1]

[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines the main issues of developing human capital within the system of continuous education . The main objective of the research is to reveal the importance of continuous education in human capital development and to demonstrate its role in training competitive personnel by improving knowledge and skills.
Keywords: human capital, continuous education, knowledge, skills, competitiveness, labor market, innovation, quality of education

Inson kapitalini rivojlantirishda uzluksiz ta’lim tizimining roli

Rashidova Dilorom Djaloliddinovna (1-bosqich magistrant)[1]

[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirishda uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson kapitalini rivojlantirishda uzluksiz ta‘lim tizimining ahamiyatini ochib berish hamda bilim va malaka oshirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi rolini ko‘rsatishdan iborat.
Kalit so‘zlar: inson kapitali, uzluksiz ta‘lim, bilim, malaka, raqobatbardoshlik, mehnat bozori, innovatsiya, ta‘lim sifati

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki,bugungi kunda globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli inson kapitalini samarali rivojlantirishda uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda inson kapitalini rivojlantirish dunyo miqyosida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar sharoitida bilimli va yuqori malakali kadrlar asosiy resursga aylandi[2].

O‘zbekistonda ham inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar inson salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kundagi dolzarbligi va me‘yoriy bazasi shundan iboratki, birinchidan, fan sig‘imi yuqori, yuqori texnologiyali innovatsion iqtisodiyotga asoslangan postindustrial jamiyatga o‘tish sharoitida mehnat faoliyatining mazmuni va xarakteri tubdan o‘zgardi. Hozirgi kunda ta‘lim sohasida keng imkoniyat va sharoitlar yaratildi, kechki hamda masofaviy ta‘lim shakllari tashkil etildi. Oliy ta‘lim muassasalarida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Inson kapitali jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.Bilimli va malakali kadrlar mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta‘minlaydi[4].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning inson kapitalini rivojlantirish haqidagi fikrlari inson kapitalini mamlakat taraqqiyotining asosiy omili deb ta‘kidlaydi[1]. Unga ko‘ra, uzluksiz ta‘lim tizimini bog‘chadan boshlab rivojlantirish, iqtisodiyotga yo‘naltirilgan mutaxassislar tayyorlash hamda ta‘lim standartlarini zamonaviylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kapitali jamiyatning eng katta boyligi bo‘lib, uni rivojlantirish orqali bilimli jamiyat va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy sohaning mohiyati, ta‘lim tizimining inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va roli A.G. Aganbegyan, Y. Masuda, A.V. Bojechkova, V.A. Sadovnichiy, A.A. Akayev, A.V. Korotayev, S.Yu. Malkov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan[2]. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti, uni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekistonda ijtimoiy soha rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ta‘lim tizimi rivojlanishi keng o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi ilmiy adabiyotlarni taxlil qilish,qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv,mantiqiy taxlil hamda umumlashtirish metodlari.

Tahlil va natijalar. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali har qanday jamiyat taraqqiyotining eng muhim omiliga aylanmoqda. Inson kapitali deganda faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalar, tajriba, fikrlash qobiliyati va innovatsion yondashuv tushuniladi[3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, uzluksiz ta’lim tizimi inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.Avvallari ta’lim ma’lum bir bosqich bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda bu qarash eskirgan hisoblanadi. Chunki texnologiyalar juda tez yangilanmoqda va kasblar mazmuni doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Shu sababli inson o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishi shart. Uzluksiz ta’lim aynan shu imkoniyatni yaratadi, ya’ni insonga hayoti davomida rivojlanish imkonini beradi[5]. Uzluksiz ta’lim tizimi nafaqat ta’lim muassasalari orqali, balki mustaqil o‘qish, onlayn kurslar va malaka oshirish dasturlari orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa insonga o‘z qiziqishi va ehtiyojiga qarab bilim olish imkonini beradi. Zamonaviy mutaxassis faqat o‘z sohasini emas, balki axborot texnologiyalari, chet tillari va kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham egallashi zarur. Bundan tashqari, uzluksiz ta’lim mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Ish beruvchilar bugungi kunda faqat diplomga emas, balki amaliy ko‘nikmalarga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va doimiy rivojlanishga tayyorlikka e’tibor qaratmoqda[6]. Shu sababli o‘z ustida ishlaydigan va yangi bilimlarni tez o‘zlashtira oladigan mutaxassislar doimo talabga ega bo‘ladi.

Davlat siyosatida ham inson kapitalini rivojlantirish

ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali uzluksiz ta’lim tizimi rivojlantirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakat iqtisodiy o‘sishi va jamiyat farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, inson kapitalining rivojlanishi faqat tashqi sharoitlarga emas, balki shaxsning ichki motivatsiyasiga ham bog‘liq. Insonda bilim olishga bo‘lgan qiziqish va intilish bo‘lsa, u doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydi va rivojlanadi. Bugungi kunda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tashkilotlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - o‘z faoliyati samaradorligini oshirish hisoblanadi. Tashkilot muvaffaqiyati ko‘p jihatdan unda faoliyat yuritayotgan xodimlarning bilim darajasi, malakasi, tajribasi va ishga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Shu sababli inson resurslarini to‘g‘ri va samarali boshqarish har qanday tashkilot rivojlanishiningmuhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, inson resurslarini strategik yondashuv asosida boshqarish tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga

erishishda katta ahamiyat kasb etadi.Inson resurslarini strategik boshqarish deganda tashkilotning umumiy maqsad va strategiyalariga mos ravishda xodimlarni tanlash, ularni rivojlantirish, rag‘batlantirish hamda ularning salohiyatidan unumli foydalanish jarayoni tushuniladi. Bunda asosiy e’tibor xodimlarning nafaqat hozirgi faoliyatiga, balki kelajakdagi imkoniyatlarini ham rivojlantirishga qaratiladi. Natijada tashkilotda mehnat unumdorligi oshadi, ish sifati yaxshilanadi va raqobatbardoshlik ortadi.Hozirgi zamonaviy sharoitda inson resurslari oddiy ishlab chiqarish omili sifatida emas, balki tashkilotning eng muhim boyligi sifatida qaralmoqda. Chunki har qanday innovatsiya, rivojlanish yoki o‘zgarishlar aynan inson omili orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun tashkilotlarda inson resurslarini strategik boshqarish tizimini shakllantirish va uni doimiy takomillashtirib borish muhim hisoblanadi.Ushbu maqolada tashkilot samaradorligini oshirishda inson resurslarini strategik boshqarishning o‘rni, uning ahamiyati hamda asosiy yo‘nalishlari yoritiladi. Shuningdek, inson resurslaridan oqilona foydalanish orqali tashkilot faoliyati natijadorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda insonning muvaffaqiyati uning mavjud bilimlari bilan emas, balki ularni yangilab borish va amaliyotda qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bu esa ta’limga bo‘lgan an’anaviy yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda faqat boshlang‘ich bilimlar yetarli emas. Chunki bilimlar tez eskiradi va yangilanib boradi. Shu sababli inson doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi zarur. Tahlil davomida yana bir muhim jihat aniqlandiki, zamonaviy ta’lim faqat ta’lim muassasalari bilan cheklanib qolmaydi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonlarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini kengaytirdi. Bu esa shaxsning o‘z rivojiga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi. Shuningdek, inson kapitalining yuqori darajada rivojlanganligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Bilimli va ongli insonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar uzluksiz ta’lim tizimi zamonaviy rivojlanishning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta’lim inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun inson faqat bir martalik bilim bilan cheklanib qolmasdan, balki doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab borishi zarur.Uzluksiz ta’lim insonning nafaqat kasbiy rivojlanishiga, balki uning shaxs sifatida shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu orqali jamiyatda bilimli, fikrlaydigan va innovatsiyalarga ochiq insonlar soni ortadi, bu

esa mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Shu bilan birga, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi,ko’plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug’iladi. Shunday ekan, Yangi O’zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o’ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi”.Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini

Rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda [1].

• uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va barcha qatlamlar uchun qulay qilish;

• onlayn va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali bilim olishni ommalashtirish;

• yoshlarni mustaqil o‘rganish va o‘z ustida ishlashga rag‘batlantiruvchi dasturlarni kuchaytirish;

• ta’lim tizimini mehnat bozori talablari bilan yanada uyg‘unlashtirish;

• zamonaviy kasb va ko‘nikmalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan kurslarni ko‘paytirish.Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, uzluksiz ta’limni rivojlantirish orqali nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatning barqaror va uzoq muddatli taraqqiyotiga erishish mumkin.

References

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risidagi ma’ruzalar va asarlar. – Toshkent, 2021.World Bank.World Development Report: Learning to Realize Education’s Promise. – Washington DC, 2018. UNESCO.Lifelong Learning for All: Policy Recommendations. – Paris, 2020.
2. Gary Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago, 1993. Theodore Schultz.Investment in Human Capital. – New York, 1971.
3. Abduqodirov A., Pardaev M.Ta’lim iqtisodiyoti va inson kapitali. – Toshkent, 2019.
4. Rasulov X.Uzluksiz ta’lim tizimi va uning rivojlanish yo‘nalishlari. – Toshkent, 2020.